

**MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI OSHIRISH VA
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASH**

*Guliston Davlat Universiteti Raqamli Iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi talabalari*

**Patalov Jahongir Jumabayevich,
Raufov Behruz Avazovich,**

*Guliston davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası
o'qituvchi*

Zaripov Azamat Djurayevich,
*mustaqil tadqiqotchi, Guliston, O'zbekiston, zaripovazamat461@gmail.com.
tel : 998930431275.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlarining daromadlar bazasini kengaytirish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Tadqiqotda statistik tahlil, solishtirmali usul va xalqaro tajribalarni o'rganish metodlaridan foydalanilgan. Natijalarda mahalliy byudjetlarning 65% soliq tushumlaridan, 23% esa markaziy transferlardan tashkil topishi, bu esa hududlar o'rtasida moliyaviy nomutanosiblikni keltirib chiqarishi aniqlandi. Xalqaro tajribalar (Shvetsiya, Niderlandiya) asosida mahalliy soliq tizimini isloh qilish, raqamlashtirish va transferlarni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Mahalliy byudjetlar daromadlari, iqtisodiy islohotlar, samaradorlik, mahalliy byudjetlar, soliq tushumlari, transferlar, moliyaviy mustaqillik, raqamli iqtisodiyot, xalqaro tajriba, O'zbekiston.*





INCREASE OF LOCAL BUDGET REVENUES AND ENSURING MANAGEMENT EFFICIENCY

Guliston State University

Faculty of Digital Economics and Innovations

Department of Finance and Financial Technologies

Student: **Patalov Jahongir Jumabayevich**

Annotation. This article explores mechanisms to increase local budget revenues and improve financial management efficiency in Uzbekistan. The study employs statistical analysis, comparative methods, and case studies of international best practices (Sweden, Netherlands). Key findings reveal that 65% of local budgets rely on tax revenues, while 23% depend on central transfers, creating regional fiscal disparities. The paper proposes reforms based on digitalization, tax diversification, and optimized transfer systems to enhance fiscal autonomy. The research provides practical recommendations for policymakers to strengthen local financial independence.

Keywords: Local budgets, tax revenues, fiscal transfers, financial autonomy, digital economy, international best practices, Uzbekistan.

УВЕЛИЧЕНИЕ ДОХОДОВ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ

Гуллистанский государственный университет

Факультет цифровой экономики и инноваций

Направление "Финансы и финансовые технологии"

Студент: **Паталов Жахонгир Джумабаевич**

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию механизмов увеличения доходов местных бюджетов и повышения эффективности



управления финансами в Узбекистане. В работе использованы статистический анализ, сравнительный метод и изучение международного опыта (Швеция, Нидерланды). Результаты показали, что 65% доходов местных бюджетов формируются за счет налогов, а 23% — за счет трансфертов, что усугубляет региональную диспропорцию. Предложены меры по цифровизации, диверсификации налогов и оптимизации трансфертов. Исследование имеет практическую ценность для укрепления финансовой самостоятельности регионов.

Ключевые слова: Местные бюджеты, налоговые доходы, трансферты, финансовая автономия, цифровая экономика, международный опыт, Узбекистан

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va hududlar moliyaviy mustaqilligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, mahalliy byudjetlar daromadlarining barqarorligi va yetarliligi davlat moliyasining umumiy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Mahalliy byudjetlarning samarali boshqarilishi va daromadlar bazasini kengaytirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari bilan ta'minlangan bir qator chora-tadbirlar asosida amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-yanvardagi farmoni (PF-4947) mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijrosini takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjatdir¹2017-yil PF-4947 Farmoni mahalliy byudjetlarga soliq imtiyozlari berish, transferlarni kamaytirish va raqamli yig'ish tizimini joriy etishni nazarda tutadi.

So'nggi yillarda mahalliy byudjetlar daromadlarining tarkibi va manbalari sezilarli darajada o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-yanvardagi "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijrosini ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (PF-4947)



ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2023-yil hisobotiga ko'ra (www.stat.uz), 2020-2025 yillarda mahalliy byudjet daromadlarining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7-8% ni tashkil etgan. Biroq, bu ko'rsatkichlar hududlar kesimida keskin farq qiladi (masalan, Toshkent shahri — 75%, Qoraqalpog'iston — 32%). Ammo bu ko'rsatkichlar hududlar kesimida sezilarli farq qilmoqda. Masalan, Toshkent shahri va viloyatida mahalliy daromadlar umumiy byudjet tushumlarining 70-75 foizini tashkil etsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va ba'zi janubiy viloyatlarda bu ko'rsatkich 30-35 foiz atrofida saqlanmoqda. Qolgan qismi markaziy byudjetdan ajratiladigan transferlar orqali qoplanmoqda.

Ushbu holat mahalliy moliyaviy siyosatning mustaqilligini cheklayotgan muhim omillardan biri sanaladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u nafaqat mahalliy byudjetlar daromadlarining mavjud holatini tahlil qiladi, balki ushbu nomutanosibliklar sabablarini aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. Shu bilan birga, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari asosida O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan samarali chora-tadbirlar taklif etiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari daromadlar bazasini kengaytirish, moliyaviy mustaqillikni oshirish va daromadlar manbalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqola quyidagi masalalarni yoritishga qaratilgan:

- Mahalliy byudjet daromadlarining tuzilmasi va asosiy manbalari;
- Hududlar kesimidagi moliyaviy nomutanosibliklar;
- Markaziy byudjetga qaramlikning oqibatlari;
- Xalqaro tajribalar asosida mahalliy daromadlarni oshirishning samarali yo'llari;

- Mahalliy moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar.

Asosiy qism

Mahalliy byudjet daromadlari davlat moliyasining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular hududiy darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya kabi xizmatlarni moliyalashtirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Prezidentning 2020-yil 18-martdagi farmoni (PF-6015) mahalliy moliya tizimini modernizatsiya qilish, soliq yig'ishni avtomatlashtirish va mahalliy daromadlarni oshirishga alohida e'tibor qaratadi.²O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofiq, mahalliy byudjetlar quyidagi daromad manbalaridan shakllantiriladi:

1. Soliq tushumlari:

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
- Yagona yer solig'i
- Aksiz solig'i (ichki ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha)
- Davlat boji
- Aylanmadan olinadigan soliq

2. Nosoliq daromadlar:

- Davlat mulkini ijaraga berish
- Mahalliy muassasalar ko'rsatgan pullik xizmatlar
- Jarimalar, penya va boshqa undirishlar
- Litsenziya va ruxsatnoma to'lovlari

3. Transferlar:

- Subvensiyalar, dotatsiyalar va subsidiyalar
- Qayta taqsimlangan soliq tushumlari

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-martdagi "Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va mahalliy daromadlarni oshirish uchun mahalliy moliya tizimini modernizatsiya qilish" to'g'risida"gi Farmoni (PF-6015)




 **1-jadval. Mahalliy byudjet daromadlarining 2020–2025-yillardagi tarkibi (foiz hisobida, o'rtacha)**

T/r	Daromad turi	Ulushi (%)
1	Soliq tushumlari	65%
2	Nosoliq daromadlar	12%
3	Transferlar	23%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mahalliy byudjetlarning katta qismi (taxminan 23%) hali-hanuz markaziy byudjetdan ajratiladigan transferlar hisobiga to‘ldirilmoqda. Bu holat hududiy moliyaviy mustaqillik darajasining pastligini ko‘rsatadi(1-rasm). Mahalliy daromadlar ulushi eng yuqori bo‘lgan Toshkent shahri (74%), eng past ko‘rsatkich esa Qoraqalpog‘istonda (32%) qayd etilgan. Bu kabi nomutanosibliklar iqtisodiy faollik, investitsion salohiyat, mehnat resurslari va soliq bazasining hududiy farqlaridan kelib chiqmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim hududlar o‘z byudjetini shakllantirishda mustaqillikka erishayotgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik viloyatlar hali-hanuz markaziy moliyaviy yordamlarga tayanmoqda. Bu esa ularda moliyaviy rejalashtirish va siyosat yuritishda cheklovlar keltirib chiqarmoqda(1-rasm). Quyida Toshkent shahri, Navoiy viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatidagi soliq tushumlari va markaziy transferlar ulushi taqqoslanadi. 2023-yilda tanlangan hududlarda mahalliy byudjet daromadlarining soliq tushumlari va transferlar bo‘yicha nisbati qanday shakllanganini aniq tasvirlab beradi.



 **1-rasm. Hududlar kesimida soliq tushumlari va transferlar nisbati (2023-yil holati):**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-fevraldagi farmoni (PF-6165) esa soliq yig‘ish tizimini soddalashtirish va mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish bo‘yicha yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqadi³ Keyingi bo‘limda xalqaro tajribalar va ularning O‘zbekiston uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi. Ikki mamlakat asosida mamlakatimiz uchun takliflar bilan chiqishimiz mumkin.

➤ **Shvetsiya misolida**(Mahalliy boshqaruvni kuchaytirish).

Mahalliy byudjetlarning 80% dan ortig‘i mahalliy soliqlardan (asosan, daromad va yer solig‘i) tashkil topadi. Hududlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish uchun mamlakat markaziy byudjet transferlarini faqat ijtimoiy dasturlarga yo‘naltiradi. Mahalliy byudjetlarni boshqarishda soliq yig‘ish tizimini markazlashtirishdan ko‘ra, mahalliy boshqaruvni kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratgan. Shvetsiya hududlar o‘rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirish uchun soliq daromadlarini taqsimlash tizimini optimallashtirgan.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-fevraldagi PF-6165-sonli “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va soliq organlari faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5262358>





Mamlakatda mahalliy daromadlarning asosiy manbalaridan biri — yer solig'i va mahalliy korxonalar uchun soliq yig'ishdir.

➤ **Niderlandiya misolida** (Mahalliy soliq tizimini optimallashtirish).

Niderlandiya mahalliy soliq tizimini rivojlantirishda yer solig'ini va mulk solig'ini samarali joriy etishga e'tibor qaratgan. *Mahalliy daromadlarning 60% yer va ko'chmas mulk solig'idan keladi. Soliq yig'ishni avtomatlashtirish orqali xarajatlarni 25% ga kamaytirgan.* Mahalliy daromadlar yig'iladigan sohalarda raqamli texnologiyalarni qo'llash va mahalliy hukumatlarga soliq yig'ish tizimini optimallashtirish imkoniyatlari yaratilgan.

Shu ikki mamlakatdagi strategiyalarni mamlakat miqyosida taklif sifatida

qo'llasak, *Shvetsiyada mahalliy byudjetlarning 80% mahalliy soliqlardan, Niderlandiyada esa 60% yer va mulk solig'idan tashkil topadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich atigi 65% (soliq tushumlari).* O'zbekistonda mahalliy soliq yig'ish tizimini kuchaytirish va soliq daromadlarini o'zaro adolatli taqsimlash uchun hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Xususan, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlarini yaratish mumkin. O'zbekistonda ham soliq yig'ish tizimini raqamlashtirish va optimallashtirishni boshlash kerak. Mahalliy soliq yig'ish jarayonini avtomatlashtirish va soliq to'lashni yengillashtiruvchi raqamli platformalar yaratish mahalliy daromadlarni oshirishga yordam beradi.

Yechimlar

- O'zbekiston Respublikasi soliq organlari bilan hamkorlikda raqamli tizimlarni joriy etish va to'lovchilarni onlayn tarzda ro'yxatdan o'tkazish





- Har bir hududda mavjud tabiiy resurslardan (neft, gaz, yer) foydalanish, turizmni rivojlantirish va kichik biznesni rag'batlantirish uchun maxsus dasturlar yaratish.
- Davlat mulkini samarali boshqarish uchun yangi boshqaruv tizimlarini joriy etish va mulklarni ijaraga berish orqali mahalliy daromadlarni oshirish.
- Hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirish uchun maxsus soliq to'lovchilarni yaratish va markaziy byudjetdan ajratmalarni teng taqsimlash.
- Xalqaro investorlarga mahalliy hududlarda faoliyat yuritish uchun imtiyozlar va qulay sharoitlar yaratish.
- Mahalliy daromadlarni boshqarish va sarflash jarayonlarini yaxshilash uchun kadrlarni tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini joriy etish.

Xulosa

Mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish va daromadlarini oshirish uchun yuqoridagi takliflar va yechimlarni amalga oshirish muhim. Har bir hududning imkoniyatlari va ehtiyojlariga qarab, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur. O'zbekistonning mahalliy byudjetlarini oshirish uchun xalqaro tajribalardan foydalanish, mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, soliq tizimini modernizatsiya qilish va davlat mulkidan samarali foydalanish orqali muhim natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-yanvardagi PF-4947-sonli Farmoni – lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-martdagi PF-6015-sonli Farmoni – lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-fevraldagi PF-6165-sonli Farmoni – lex.uz/docs/5262358





4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
(2023) – www.stat.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi – www.mf.uz
6. OECD (2023). "Tax Policy Reviews: Sweden" – [OECD iLibrary](http://OECD.iLibrary)
7. Government of the Netherlands. "Local Taxes and Revenues" – www.government.nl
8. World Bank (2022). "Uzbekistan Public Finance Review" – [World Bank Reports](http://WorldBankReports)
9. IMF (2021). "Fiscal Transparency in Uzbekistan" – [IMF eLibrary](http://IMF.eLibrary)
10. Shvetsiya Soliq Agentligi (Skatteverket) – www.skatteverket.se